

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSİYALAR VAZIRLIGI

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

Ro'yxatga olindi  
№ 60530700  
2024 yil "26" 06



"FASDIQLAYMAN"  
Termiz davlat universiteti  
o'qituvchi ishlari bo'yicha prorektor  
prof. R.To'rayev  
06.

TUPROQ KIMYOSI

O'QUV DASTURI

Bilim sohasi:	500 000 – Tabiiy fanlar, matematika va statistika
Ta'lif sohasi:	530 000 – Fizika va tabiiy fanlar
Ta'lif yo'naliishi:	60530700 – Tuproqshunoslik

Fan/modul kodi <b>TUKB311</b>		O'quv yili <b>2024-2025</b>	Semestr <b>5/6</b>	ECTS - Kreditlar <b>6/5</b>		
Fan/modul turi <b>Majburiy</b>		Ta'lif tili <b>O'zbek</b>		<b>Haftadagi dars soatlari</b> <b>4</b>		
1.	<b>Fanning nomi</b>		<b>Auditoriya mashg'uotlari (soat)</b>	<b>Mustaqil ta'lif (soat)</b>	<b>Jami yuklama (soat)</b>	
	<b>Tuproq kimyosi</b>		<b>120</b>	<b>210</b>	<b>330</b>	
<p><b>I. MODUL TAVSIFI (Description)</b></p> <p><b>Tuproq kimyosi</b> fanida 30 ta mavzu bo'lib, 60 soat ma'ruza, 60 soat labaratoriya mashg'ulot va 210 soat mustaqil ta'lif va mustaqil ish rejalashtirilgan.</p> <p><b>Tuproq kimyosi</b> 4 ta moduldan iborat bo'lib, har bir mavzu modul talablari asosida ma'ruza, labaratoriya va mustaqil ta'lif hajmi va mazmuni, tegishli ballar topshirish muddatlar shuningdek, baholash me'zonlari hamda foydalaniladigan adabiyotlar ro'yhatini o'z ichiga oladi.</p> <p><b>Tuproq kimyosi</b> tuproqshunoslikning nazariy hamda amaliy bilim va ko'nikmalarini shakllantirishga, rivojlantirishga yo'naltirilgan.</p>						
<p><b>II. FANNING MAZMUNI</b></p> <p>“Tuproq kimyosi” fani tuproqshunoslik fanining tuproq hosil bo'lishidagi kimyoviy jarayonlar hamda tuproq unumdarligi, rivojlanish tarixi, asosiy bo'limlarini, boshqa fanlar bilan bog'liqligi masalalarini qamraydi. “Tuproq kimyosi” tuproqning kimyoviy tarkibini o'rganish bilan birga uning unumdarligini oshirish yuzasidan olib boriladigan tuproq xossalari o'r ganuvchi fan hisoblanadi.</p> <p>“Tuproq kimyosi” fani umumkasbiy fanlar blokiga kiritilgan bo'lib 3 kursda o'qitilishi maqsadga muvofiq. “Tuproq kimyosi” fani gumanitar va tabiiy fanlar turkimiga kiradi va barcha tuproqshunoslik fanlarining nazariy uslubiy asosini tashkil qilib, o'z rivojida aniq yo'nalishdagi tuproqshunoslik fanlar uchun zamin bo'lib xizmat qiladi. Mazkur fanni o'zlashtirish uchun talabalar matematika, fizika, tuproqshunoslik, tuproq fizikasi va boshqa fanlardan yetarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlari talab etiladi.</p> <p>Fanni o'qitishning maqsadi-har xil tuproq tiplarining kimyoviy xossalari, kimyoviy tarkibini, singdirish sig'imini, organik moddalarni, tuproqlarning gumusli holatini, tuproq kimyosining asosiy muammolarini va tuproqlarning umumiyligi kimyoviy xossalari, tuproqlarni zamonaviy texnologiyalar yordamida o'rgatishdan iborat. Tuproq kimyosining ilmiy-nazariy asoslarini ta'lif yo'nalishiga mos ravishda ularga bilim, ko'nikma va malakalarni berish.</p> <p>Fanni o'qitishning vazifalari tuproqning asosiy kimyoviy xossalari tarkibi, tuproq suyuq, qattiq, gaz va biologik fazalari, tuproqda elementlar profili bo'yicha migratsiyasi, organik moddalar ularning hosil bo'lishi, tarkibi taqsimlanishi; ekologik muammolar va ularning yechimini topishda yoshlarning o'rmini aniqlashtirish; fanning maqsadi, vazifalari, ob'ekti, predmeti, kontsiptsiyalari va printsiplarini ochib berish; muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va buzilgan tabiat majmualarini qayta tiklash bo'yicha tizimli va majmuali yondashuv qoidalarini tushuntirish; ekologik ta'lif-tarbiya uzluksizligi va uzviyligini ochib berish; umumbashariy fundamental va milliy ekologik qadryatlar haqidagi tushunchalar zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tanishtiriladi.</p>						

### **III. ASOSIY NAZARIY QISM (ma’ruza mashg‘ulotlari)**

#### **III.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi: (THEMES)**

##### **1 – mavzu. Tuproq kimyosining tarixi va riyojlanish bosqichlari. Tuproq kimyosining shakllanish davrlari tarixi**

“Tuproq tirik mavjudot hayot-mamoti negizidir”, - deb aytgan edi o‘z zamonasida Abu Ali Ibn Sino. Hozir ham bu fikr o‘z kuchi va qiymatini yo‘qtogani yo‘q. Tuproqni kimyoviy nuqtayi nazardan o‘rganish eng avvalo uning unumdorlik darajasini oshirishga qaratilmog‘i darkor.

##### **2 – mavzu. Tuproq qattiq qismi va kimyoviy jarayonlar**

Tuproq hosil bo‘lishi kimyoviy reaksiyalar va jarayonlarni ko‘pchiliginin birdaniga yoki ketma – ket sodir bo‘lishi bilan bog‘liq bo‘lib bu sohada aniq va bir butun bu jarayonni to‘la – to‘kis xarakterlaydigan bir tizimli g‘oya yo‘q.

##### **3 – mavzu. Tuproqlarnmg kimyoviy tarkibi va rangi**

Tuproq rangiga ta’sir etuvchi pedomorf elementlardan C, Fe, Mn, Ca, K lar bilan bir qatorda Si tuproqning asosiy massasini tashkil qilib, unga oqish rang beradi.

##### **4 – mavzu. Tuproq va litosferaning kimyoviy tarkibini o‘zaro yaqinligi va farqi**

Tuproq litosferaning eng ustki va nurash qobig‘ida joylashgan. Shuning uchun litosferaning kimyoviy tarkibi nasldan naslga o‘tgani kabi, m’alum qismi tuproqqa o‘tadi. Lekin tirik organizm ta’sirini boshdan kechirgan tuproq litosferadan keskin farq qiladi. A.P. Vinogradov ma’lumotlariga ko‘ra, litosfera va tuproqning deyarli yarmini 47 – 49 % kislород tashkil qiladi.

##### **5 – mavzu. Tuproqda ishqoriy yer metallari**

Kalsiy, magniy elementlarining birikmalari kaliy va natriy birikmalariga nisbatan bir muncha ko‘proq tarqalgan. Bular turg‘un silikatlardan tashqari karbonatlar, sulfatlar tarkibiga tuproq singdirish kompleksiga kiradi.

##### **6 – mavzu. Tuproq eritmasining manbalari, ajratib olish usullari**

Tuproq eritmasi biosfera tirik va notirik dunyo o‘tasidagi zanjir tariqasida yerda yashovchi yashil o‘simliklarning yashashi uchun imkoniyat yaratish yo‘li bilan hayotni qo‘lab – quvvatlaydi.

##### **7 – mavzu. Tuproq eritmasining muhit, tarkibi va konsentratsiyasi**

Tabiiy va sun’iy sharoitlarga qarab tuproq eritmasi tarkibi va konsentratsiyasi, muhit o‘zgarib turadi, ya’ni u dinamik tizimda turadi. Tuproqning tipi, tipchasi, ayirmasi esa uning genezisiga sho‘rlanganlik va sho‘rtoblik darajasi va boshqalarga bog‘liq bo‘ladi.

##### **8 – mavzu. Tuproq kimyosi bo‘yicha K.K.Gedroyts ta’limoti**

Tuproqlarning singdirish qobiliyati deb. ular tomonidan aimashinadigan va almashinmaydigan tarzda qattiq, suyuq va gaz holatidagi moddalaming yutilishiga, kolloid zarracha ustiga konsentratsiyasining ortishiga aytildi.

##### **9 – mavzu. TSK tomonidan kationlar va anionlarning yutilishi**

Odatda tuproqlardagi almashinishi mumkin bo‘lgan elementlar ulaming umumiyl miqdordan ozgina qismini tashkil qiladi. Almashinishi mumkin bo‘lgan holatda  $\text{Ca}^{+2}$ ,  $\text{Mg}^{+2}$ ,  $\text{K}^+$ ,  $\text{Na}^+$ ,  $\text{NH}_4^+$ ,  $\text{Mn}^{+2}$ ,  $\text{Fe}^{+3}$ ,  $\text{H}^+$ ,  $\text{Al}^{+3}$  kabi elementlar bo‘ldi.

##### **10 – mavzu. Tuproq muhitini shakllantiruvchi omillar**

Tuproqdagi muhit, ya’ni tuproq reaksiyasi tuproq eritmasidagi  $\text{H}^+$  va  $\text{OH}^-$  ionlarning miqdori va nisbati bilan bog‘liq bo‘lib, pH odatda  $\text{H}^+$  ionlarning faolligini salbiy logarifmi bilan o‘lchanadi.

##### **11 – mavzu. Tuproqlarning asoslar bilan to‘yinganlik darajasi**

Bu ko‘rsatkich almashinuvchi Ca, Mg asoslarini singdirish sig‘imiga nisbatan foiz miqdori bilan belgilanadi.

##### **12 – mavzu. Tuproqda III guruh elementlari va tuproq muhit**

Uchinchi guruhdagi elementlardan faqat alyuminiy tuproq tarkibida makro miqdorda uchraydi va muhim hal qiluvchi konstitutsion rol o‘ynaydi. Bu guruhning qolgan elementlarini mikro va ultromikroelementlar qatoriga kiritish mumkin bo‘lib, ularning ichida bor nisbatan yaxshi o‘rganilgan va o‘simliklar fiziologiyasidagi roli isbot qilingan.

### **13 – mavzu. Tuproqda IV guruh elementlari**

Uglerod va kremniy makroelementlar bo‘lib, biosferada va tuproq hosil bo‘lish jarayonida alohida rol o‘ynaydi.

### **14 – mavzu. Silikatlarning analiz usullari**

Analiz usullari ichida eng ko‘p foydalaniladigan bu termik analiz usulidir. Termik analiz usulida endotermik va ekzotermik effektlar o‘rganilib, shu asosda mineralogik tarkibi aniqlanadi.

### **15 – mavzu. Tuproqning organik moddalari**

Tuproqning organik moddalari juda murakkab va xilma-xil birikmalardan, birikmalar guruhidan tuzilgan bo‘lib, odatda oz miqdorda bo‘ladi.

### **16 – mavzu. Tuproqning gumuslilik holati**

Gumus tarkibidagi organik moddalari, alohida birikmalar qanchalik murakkab va ahamiyatli bo‘lmashin, tuproqni tavsiflashda gumusning o‘zidek rol o‘ynay olmaydi.

### **17 – mavzu. Gumus kislotalarining oksidlanishi, gidrolizi**

Tuproq energetikasi muammolari va uning issiqlik xossalari o‘rganishda gumus, gumus moddalarining ahamiyati katta.

### **18 – mavzu. Tuproqdagagi asosiy oziqa elementlari**

Tabiatdagi mavjud azotning asosiy qismi atmosferada uchraydi. Uning bu miqdori 78 % ni tashkil qiladi. Azotning anorganik birikmasi foydali qazilma tariqasida Tinch okean qirg‘og‘ida, Chilida natriyli selitra ( $\text{NaNO}_3$ ,  $\text{NaNO}_2$ ) tariqasida mavjud.

### **19 – mavzu. Tuproqda fosfor va kalii**

Fosfor “hayot kaliti” nomi bilan ataladi, bunga sabab u ko‘pchilik hayotiy jarayonlarda bevosita qatnashadi.

### **20 – mavzu. Tuproqda oltingugurt**

Oltungugurtning ba‘zi harakatlari azotni eslatadi. Organik birikmalarda kovalent bog‘ hisobiga uglerod bilan birikkan holda bo‘ladi. Tuproqda, organik birikmalarda har xil darajada( $\text{S}^{\circ}-\text{S}^{-6}$ ) oksidlangan holda bo‘ladi.

### **21 – mavzu. Tuproqlarda oksidlanish va qaytarilish hodisasi va tenglamasi**

Tuproq murakkab oksidlanish va qaytarilish tizimidan iborat. Tuproqda ko‘p miqdorda xilma-xil moddalar mavjud. Ular tabiatan organik va mineral xususiyatlarga ega bo‘lib, kelib chiqishlari ham organik va mineral yo‘llar bilan sodir bo‘ladi.

### **22 – mavzu. Temir va marganesning elementlar davriy sistemasidagi o‘rni va ayrim xususiyatlari**

Mendeleyev elementlar davriy sistemasida Mn va Fe o‘zaro yonma – yon joylashgan bo‘lib, o‘xshash elektron qobiqlarga ega.

### **23 – mavzu. Temir birikmalari guruqlariga tavsif**

Tuproqda va tuproqni hosil qiluvchi jinslarda temir elementining manbayi rolini temirli silikatlar: amfibollar, piroksenlar, granatlar va boshqalar o‘ynaydi.

### **24 – mavzu. Marganes va uning birikmalari**

Marganes tuproqdagagi o‘rtacha miqdori bir metrli qatlam uchun 0,01-0,02 % dan 0,15-0,20 % gacha bo‘lib, bu ko‘rsatkich bo‘yicha fosfor, oltingugurt, titanga yaqin turadi.

### **25 – mavzu. Biomikroelementlarning biogeokimyoviy xususiyatlari**

Vernadskiy iborasi bilan aytganda, organizmlardagi juda oz oz miqdordagi, ya’ni  $10^{-3}$  % dan kam bo‘lgan elementlarga mikroelementlar deyiladi.

### **26 – mavzu. Xalkofil elementlar va boshqa metallarning biogeokimyoviy xossalari**

Bu guruh elementlarning atom tuzilishlari va gidrotermal zonalarida kontsetratsiyalanish o‘zaro yaqin.

### **27 – mavzu. Galloidlarning geokimyoviy va biogeokimyoviy xossalari**

VII guruxning asosiy gruppachasiga ftor, brorn, xlor, yod va astatlarga galogenlar deyiladi. Bu so‘zning ma’nosini tuz hosil qiluvchi demakdir.

### **28 – mavzu. Galloidlarning tuproq va suvdagi migratsiyasi**

Arid iqlimli, sug‘oriladigan dehqonchilik rivojlangan mintaqalarda, ayniqsa, O‘zbekiston misolida oladigan bo‘lsak, paxtachilik va u bilan bir qatorda unga mos keluvchi o‘simlik turlarini ekish, o‘stirish yaxshi yo‘lga qo‘yilgan.

### **29 – mavzu. Tuproqda uran , radiy, toriy, kaliy, uglerod va boshqa radioaktiv elementlar**

Fan olamida uran elementining radioaktivlik xususiyatini 1896-yilda fransiyalik olim, buyuk fizik Anri Bekkerel isbotlaganligi ma’lum.

### **30 – mavzu. Tuproqlarda tabiiy radioaktiv elementlar (TRE) ning migratsiyasi**

Ko‘p yashovchi izotoplar bilan ularning tog‘ jinslari va tuproqdagi miqdorlari orasida bog‘liqlik bor. Granitlarda, gillarda  $11-18 \times 10^{-6}$  g/t Th,  $75 \times 10^{-6}$  g/t Rb<sup>87</sup>,  $3 \times 10^{-6}$  g/t K<sup>48</sup>,  $(3-4) \times 10^{-6}$  g/t U bor.

## **IV. Laboratoriya mashg‘ulotlarini tashkil etish bo‘yicha tavsiya va ko‘rsatmalar**

Laboratoriya ishlari har bir talaba tomonidan alohida bajariladi. Bunda talaba bajariladigan labaratoriya ishining nazariy va amaliy tomonini qisqacha izohlab beradi. So‘ngra labaratoriya ishining bajarilishi davomida olingan natijalarini xulosalab, o‘z daftariga yozib qo‘yadi. Ushbu xulosalar o‘qituvchi tomonidan og‘zaki muloqot shaklida tekshiriladi.

1. Laboratoriyyada xavfsizlik texnikasi va ko‘ngilsiz hodisalarining oldini olish
2. Suvli so‘rim analizi xaqida umumiylar tushuncha
3. So‘rimdan sifat reaksiyalarini bajarish
4. Suvda eriydigan moddalarning umumiylarini miqdori (quruq qoldiq)ni aniqlash
5. Tuproq tarkibidagi gumus miqdorini I.V.Tyurin usulida aniqlash.
6. Tuproqdan chirindi kislotalarini ajralib olish
7. Tuproqdagi muhim kimyoviy elementlarni aniqlash
8. Tuproqning mexanik singdirish xususiyatini o‘rganish
9. Tuproqning fizik kimyoviy singdirish xususiyatini o‘rganish
10. Tuproqni biologik singdirish xususiyatini o‘rganish metod
11. Tuproqdagi kaliyni P.V.Protasov-milne usulida aniqlash
12. Kaliyli o‘g‘itlar tarkibidagi kaliy miqdorini Tarrat usulida aniqlash.
13. Tuproqdagi asosiy ozuqa moddalarni tezlashtirilgan usulda aniqlash (M.A.Belousov va A.L.Toropkina bo‘yicha)
14. Tuproqning karbonatliliginani aniqlash
15. Tuproqdagi karbonatlarni aniqlash. Karbonatlardagi karbonat kislotalarni kalsimetrik yordamida aniqlash
16. Gigroskopik nam miqdorini aniqlash
17. Tuproq reaksiyasini aniqlash
18. Tuproq reaksiyasini aniqlash
19. Xlor ionini aniqlash.
20. Sulfat kislotali aniqlash
21. Kalsiyni aniqlash
22. Almashinuvchi kalsiy va magniy kationlarini K.K. Gedroys metodi bilan aniqlash
23. Magniyni aniqlash.
24. Magniyni trilon usuli bilan aniqlash
25. Almashinuvchi natriy kationini M.M.Godlin usulida anislash.
26. Tuproqdagi gipsni aniqlash
27. Tuproqdagi xarakatchan azot miqdorini I.V.Tyurin va M.M.Kononova usulida aniqlash
28. Tuproqdagi fosfat kislotali B.P. Mochigin metodi bilan aniqlash
29. Go‘ng tarkibidagi umumiylarini fosforni aniqlash.

30. Karbonatli tuproqlar singdirish sigimini YE.V.Bobko va D.L.Askinazi usuli bilan aniqlash

**V. Fan bo'yicha kurs ishi (loyihasi).**

Kurs ishlarini tashkil etishdan ko'zlangan asosiy maqsad va vazifalar "Tuproq kimyosi" fani bo'yicha talabalarning shu fanda mavjud muammolar bilan ishlash va ularni tahlil qilish, o'r ganib chiqish hamda ularga o'z mustaqil fikrlarni bildira olish ko'nikmasini shakllantirish. Shuningdek nazariy va amaliy bilimlarni kengaytirish va mustahkamlashdan iborat.

**Talabalarga taklif qilinadigan kurs ishlari mavzulari:**

1. Tuproq kimyosining predmeti, mazmuni, yo'nalishlari va muammolari.
2. Nurash va tuproq hosil bo'lishi, tuproq va xayotning rivojlanishi, atrof muhit va xayotda tuproqning roli.
3. Tuproq kimyosining rivojlanish tarixi.
4. Tuproq kimyosining tuproqlar klassifikatsiyasi, diagnostikasi, genezisi va melioratsiyasi masalalarini yechishdagi roli.
5. Tuproqning element va modda tarkibi, oksidlanish va qaytarilish jarayonlari, sug'orish suvlarining tarkibi.
6. Tuproqdagi muhim elementlar tavsifi, migratsiyasi, mikro, makroelementlar, biogen va pedomorf elementlar.
7. Tuproq mineralogiyasi. Birlamchi va ikkilamchi minerallar ularning xossa va xususiyatlari.
8. Tuproq kesimi kimyoviy tarkibini o'zgarishi.
9. Tuproqdagi ishqoriy va ishqoriy yer metallarining birikmalari.
10. Tuproqda D.I.Mendelev davriy sistemasidagi I-guruh elementlari.
11. Tuproq eritmasi. Suvda oson eruvchi anion va kationlar.
12. Tuproqlarning ishqoriyligi, kislotaligi va buferligi. Tuproq muxiti.
13. Tuproq eritmasini ajratib olish usullari.
14. Tuproqning mexanik, fizik, kimyoviy, fizik-kimyoviy, biologik singdirishi. Tuproq singdirish kompleksi.
15. Tuproq kolloidlari va ularning ion almashinish xususiyati. Singdirish sig'imi kation va anionlarning almashinishi. Kation almashinushi va adsorbsiya.
16. Tuproqda adsorbsiya jarayonlari.
17. Koogulatsiya va peptizatsiya jarayonlar.
18. Tuproqdagi alyuminiy birikmalari.
19. Alyumosilikatlar, ularning tuproqdagi birikmalari.
20. Tuproqdagi IV-guruh elementlari.
21. Tuproq tarkibidagi uglerod birikmalari.
22. Tuproq tarkibida qalay, qo'rg'oshin.
23. Tuproq tarkibida germaniy, kremniy va ularning birikmalari.
24. Kremniy kislotalari, silikatlar.
25. Tuproqdagi gilli minerallar va montmorilanit.
26. Uglerodli mineral birikmalar.
27. Uglerodli mineral birikmalarning tuproq unum dorligiga ta'siri.
28. Karbonatlarning tuproq unum dorligiga ta'siri.
29. Tuproq jarayonlarida azot.
30. Tuproq jarayonlarida fosfor.
31. Tuproq jarayonlarida kaliy.

32. Tuproqdagi makroelementlar.
33. Tuproqdagi mikroelementlar.
34. Tuproq jarayonlarida oltingugurt.
35. Tuproq jarayonlarida temir va marganets birikmali.
36. Tuproq profillarida elementlarning migratsiyasi.
37. Tuproqdagi organik moddalar va ularning tabiat.
38. Tuproqdagi gumus kislotalar.
39. Gumusning guruhiy va fraktsion tarkibi.
40. Organik moddalarning tuproqdagi roli va ularni o'rganish usullari.
41. Tuproqning gumusli xolati va tasniflar.

## **VI. MUSTAQIL TA'LIM VA MUSTAQIL ISHLAR**

**(Independent study and independent work)**

Mustaqil ta'lismi ma'ruza, laboratoriya mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rishdan tashqari fan dasturida ko'rsatilmagan, ammo fan bo'yicha talabaning bilim doirasini kengaytiruvchi qo'shimcha mavzular doirasida berilgan topshiriqlarni o'z ichiga oladi.

**Mustaqil ta'lismi quyidagi shakllarda tashkil etish tavsiya etiladi:**

- mavzularni normativ-huquqiy hujjatlar va o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish;
- mavzular bo'yicha referat tayyorlash;
  - laboratoriya mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rish;
  - ilmiy maqola va tezislarni tayyorlash;
  - fanning dolzarb muammolarini qamrab oluvchi loyihalar tayyorlash;
  - nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash;
  - amaliyotdagi mavjud muammolarning yechimini topish;
  - o'rganilayotgan mavzu bo'yicha asosiy ilmiy adabiyotlarga annotatsiya yozish va boshqalar.

Ta'lismi jarayonida innovatsion texnologiyalarni, o'qitishning interfaol usullarini qo'llash talaba tomondan mustaqil tanlanadi. Talabalarning mustaqil ta'limi tashkil etish tizimli tarzda, ya'ni uzlusiz va uzviy ravishda amalga oshiriladi. Talaba olgan nazariy bilimini mustahkamlash, shu bilan birga navbatdagi yangi mavzuni puxta o'zlashtirishi uchun mustaqil ravishda tayyorgarlik ko'rishi kerak.

**Mustaqil ta'lismi uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi**

1. Tuproqlar kimyosi faninining predmeti, maqsad va vazifalari
2. Tuproq kimyosi fanining dolzarbligi va ahamiyati
3. Tuproq kimyosi fanining boshqa fanllar bilan bog'liqligi
4. O'zbekistonda tuproq kimyosining taraqqiyoti
5. Tuproqlar kimyosi faninining paydo bo'lishi va rivojlanish va tarixi
6. Tuproq kimyosining shakllanish davrlari
7. Tuproq kimyosining tuproqlar klasifikatsiyasi
8. Tuproqlarning diagnostikasi va genezisi
9. Sug'orish talablari va uning tarqalishi
10. Sug'orish melioratsiyasining turlari
11. Tuproq qattiq qismi kimyosi

12. Tuproqning kimyoviy jarayonlari
13. Tuproqning element tarkibi
14. Tuproqdagi muhim elementlar tavsifi
15. Elementlar migratsiyasi
16. Tuproqdagi makroelementlar
17. Tuproqdagi mikroelementlar
18. Tuproqdagi biogen va pedomorf elementlar
19. Tuproq profilida kimyoviy tarkibini o'zgarishi.
20. Tuproqlarning mineral qismi va mineralogiyasi
21. Birlamchi va ikkilamchi minerallar
22. Marganets va uning birikmalar
23. Alyumosilikatlar, ularning tuproqdagi birikmali
24. Tuproqning ishqoriyligi
25. Tuproqlarning buferlik qobilyati
26. Ishqoriy yer metallariga xarakteristika
27. D.I.Mendelev davriy sistemasidagi I – guruh elementlari
28. Kaliy va natriy elementlari
29. Kalsiy va magniy birikmalar
30. Tuproq eritmasi
31. Tuproq eritmasining tarkibi
32. Tuproqning konsentratsiyasi va muhiti
33. Tuproq eritmasidagi kalloidlar
34. Tuproqning singdirish qobilyati
35. O'simliklar o'sishi va rivojlanishida singdirilgan kationlarning roli
36. Singdirish kompleksi
37. Tuproqning mexanik singdirish qobilyati
38. Tuproqning fizik singdirish qobilyati
39. Tuproqning kimyoviy singdirish qobilyati
40. Tuproqning fizik – kimyoviy singdirish qobilyati
41. Tuproqning biologic singdirish qobilyati
42. Tuproq kalloid zarrachasining zaryadi, tuzulishi
43. Anionlar va kationlarning yutulishi haqida tushuncha
44. Tuproq kolloidlarining fizik holati va ahamiyati
45. Tuproqlarning singdirish qobilyati
46. Kation almashinuvi va adsorbsiya jarayonlari
47. Tuproqda adsorbsiya jarayonlari
48. Tuproq koogulyatsiyasi va peptizatsiyasi
49. Koogulyatsiya jarayonlari va ularning tuproqdagi o'rni
50. Peptizatsiya jarayonlari
51. Tuproqdagi aluminiy birikmalar
52. Tuproqda aluminiyning kompleks birikmalar
53. Tuproqdagi IV-guruh elementlari
54. Tuproq tarkibidgi uglerod va kremniy
55. Rux elementining tuproqqa tarqalishi
56. Tuproqda kremniy va uning birikmalar
57. Uglerodli mineral birikmalar
58. Uglerodli mineral birikmalarning tuproq unumdonligiga ta'siri.

- |                                      |   |
|--------------------------------------|---|
| <p style="text-align: center;">3</p> | <p>59. Karbonatlarning tuproq unumdorligiga ta'siri.</p> <p>60. Kremniy kislotalari, silikatlar</p> <p>61. Tuproqdagi gilli minerallar va montmorilanit</p> <p>62. Tuproq tarkibida germaniy, kremniy va ularning birikmalari</p> <p>63. Tuproq tarkibida qalay, qo'rg'oshin.</p> <p>64. Tuproq unumdorligi</p> <p>65. Organik moddalarning tarkibi</p> <p>66. Tuproqning organic moddalari</p> <p>67. Gumussimon moddalar va ularning tabiatи</p> <p>68. Gumin kislotalar, ularning tarkibi, tuzilishi va xususiyatlari</p> <p>69. Tuproqning gumuslik holati</p> <p>70. Tuproq gumislik holatining ko'rsatkichlari</p> <p>71. Tuproq muhofazasining ahamiyati</p> <p>72. Tuproqlarni zararli kimyoviy moddalardan himoya qilish</p> <p>73. Yerlardan oqilona foydalanish</p> <p>74. Tuproq jarayonlarida azot</p> <p>75. Tuproq jarayonlarida fosfor</p> <p>76. Tuproq jarayonlarida kaliy</p> <p>77. Tuproq jarayonlarida oltingugurt</p> <p>78. Tuproqdagi tarqalgan muhim elementlar, ularning ko'chishi, mikro, makro elementlari</p> <p>79. Birlamchi va ikkilamchi minerallar ularning xossa va xususiyatlari</p> <p>80. Suvda oson eruvchi anion va kationlar</p> <p>81. Tuproqlarning kislotaligi</p> <p>82. Tuproq muxiti</p> <p>83. Tuproqdagi gilli minerallar va montmorilanit.</p> <p>84. Organik moddalarning tuproqdagi roli va ularni o'rganish usullari.</p> |
|--------------------------------------|---|

## **VII. Ta'lif natijalari (Kasbiy kompetensiyalari) Learning Outcomes (Professional Competences)**

-“Tuproq kimyosi” fanining tuproq kimyoviy xossalarni o’rganishdagi ahamiyati; hozirgi zamон tuproq kimyosi, uning mazmuni va vazifalari; tuproq kimyosining asosiy yo’nalishlari, asosiy muammolari; tuproqning element va faza tarkibi; tuproqdagi ishqoriy va ishqoriy yer metallari; tuproq eritmasi; tuproq kolloidlari va ularning ion almashinish xususiyati; tuproqdagi alyuminiy, kremniy birikmalari; tuproqdagi organik moddalar; tuproqning gumusli holati to’g’risida tasavvurga ega bo’lishi;

- tuproq kimyosining qishloq xo’jaligi va tabiatni muhofaza qilishga doir regional masalalarini yechishdagi rolini; tuproq mikroelementlarini, turoq kimyosining tuproqlar klassifikatsiyasi, diagnostikasi, genezesi, bonitrovkasi va unumdorlik masalalarini yechishdagi rolini; fanning maqsadi, vazifalari va boshqa fanlar bilan bog’liqligini bilishi va ulardan foydalana olish;

- tuproqda ketadigan kimyoviy jarayonlarni tahlil qilish; tuproqda gumus, uning miqdori, zahirasi gumusli holati, gumus kislotalarini ajratib olish; tuproq xossalarni laboratoriyyada aniqlashda innovatsion texnologiyalar qo’llash orqali tuproq kimyosi fanidan olingan bilimlarini ilmiy-tadqiqot ishlariga tadbiq yeta olish va amalda qo’llay olish ko’nikmalariga yega bo’lishi

	kerak.
4	<p><b>VIII. Ta’lim texnologiyalari va metodlari (Educational technologies and): methods:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>➤ ma’ruzalar</li> <li>➤ seminar</li> <li>➤ amaliy</li> <li>➤ interfaol</li> <li>➤ keys-stadilar</li> <li>➤ guruhlarda ishlash</li> <li>➤ taqdimotlarni qilish</li> <li>➤ individual loyihamarlar.</li> </ul>
5	<p><b>IX. Kreditlarni olish uchun talablar (Requirements for obtaining loans):</b></p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘la o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo‘yicha yozma ishni topshirish.</p>
6	<p style="text-align: center;"><b>TAVSIYA ETILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI (LIST OF RECOMMENDED LITERATURE)</b></p> <p style="text-align: center;"><b>Asosiy adabiyotlar</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Yuldashev G, Abduraxmonov T., Jabbarov Z. Tuproq kimyosi. Toshkent 2020.</li> <li>2. Orlov D.S., Sadovnikova L.K., Suxanova N.I. Ximiya pochv. Moskva “Vyschaya shkola” 2005. S.557.</li> <li>3. Aleksandrova L.G. Organicheskoe veshchestvo potsvy i protsessii yego transformatsii. L.Nauka, 1980.</li> <li>4. Rustam Toshxujaev Tuproqshunoslik (amaliy mashg’ulotlar) Toshkent - 2009</li> </ol> <p style="text-align: center;"><b>Qo’shimcha adabiyotlar</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1 Mirziyoev Sh.M-. Tanqidiy taxlil, kat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarliklar bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo’lishi kerak. Toshkent, O’zbekiston nashriyoti, 2017.</li> <li>2 2017-2021 yillarda O’zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo’nalishi bo‘yicha xarakatlar strategiyasini “Xalq bilan mulokot va inson manfaatlari yili” da amalga oshirishga oid Davlat dasturini o’rganish bo‘yicha ilmiy uslubiy risola. T.: “Ma’naviyat”, 2017.</li> <li>3 Аринушкина Е.В. Руководство по химическому анализу почв. Москва Изд. МГУ. 1970.</li> <li>4 Хинрич Л.Б., Бриан Л. М., Георге А.О. Соил чемистрй. 2001. УСА.</li> <li>5 Даниэл Г.С., Хинрич Л.Б., Георге А.О. Соил чемистрй. УК, 2015.</li> <li>6 Орлов Д.С. Химия почвы. Изд. МГУ, 1985.</li> <li>7 Орлов Д.С., Гришина Л.А. Практикум по химии гумуса. Учебное пособие. МГУ, 1981.</li> <li>8 Камилова Д.С. Тупрок чириндиси ва уни ўрганиш услублари. Тошкент, 1997.</li> <li>9 Tuproq kimyosi fanining o’quv-uslubiy majmuasi Termiz, 2024.</li> </ol> <p style="text-align: center;"><b>Internet saytlari:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. <a href="http://www.lib.tersu.uz">www.lib.tersu.uz</a></li> <li>2. <a href="http://www.nuu.uz">www.nuu.uz</a></li> <li>3. <a href="http://www.Ziyonet.uz">www.Ziyonet.uz</a></li> <li>4. <a href="https://scholar.google.com">https://scholar.google.com</a></li> </ol>

<b>7</b>	<b>XII. Termiz davlat universiteti Ekologiya va tuproqshunoslik kafedrasи tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.</b>
<b>8</b>	<b>Fan/modul uchun ma'sollar:</b> M.B.Abramatov – TerDU, “Ekologiya va tuproqshunoslik” kafedrasи mudiri, b.f.n., dotsent. O.U.Normuratov – TerDU, “Ekologiya va tuproqshunoslik” kafedrasи dotsenti.
<b>9</b>	<b>Taqrizchi:</b> - S.M. Boltayev – Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish instituti professori, qishloq xo'jalik fanlari doktori.

